

IJTIMOY TARMOQLAR ORQALI BUZG'UNCHI G'OYALARNI SALBIY TA'SIRINI OLDINI OLISHDA DUNYO DAVLATLARINING ILMYIY YONDASHUVI MISOLIDA.

*Jamoat xavfsizligi univertiteti magistratura tinglovchisi
Abduraxmonov Abrorbek Abdumansur o'g'li.*

Annotatsiya: Hozirgi globallasuv va axborot almashinuvi jadallashgan davrda halqning manaviy va madaniy qadriyatlarini yo'q qilishga qaratilgan kuchlarga qarshi turish zamon talabiga aylandi. Ushbu maqolada dunyoning rivojlangan davlatlari qo'llayotgan tajribalari ko'rib shiqilgan holda bizning yurtimizda qilinishi mumkin bo'lgan va qilinishi lozim bo'lgan ishlar haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: globallasuv jarayoni, tadqiqot natijalari, olimlar fikri, Rossiya, Ukraina, Falastin va Isroil.

“Tanganing ikki tomoni bor”, “yomonini izlamasang, yaxshisi kelmaydi”- bu so'zlarning mavzuyimizga naqadar mos kelishini xech kim rad qilmasligiga ishonchimiz komil. Sababi, ijtimoiy tarmoqlar - bir vaqtning o'zida jamiyat uchun ham foydali, ham halokatli omil ekanligini hozirgi kunda barchamiz guvohi bo'lib turibmiz. XXI asrga kelib ko'z ochib-yumguncha ommalashib ulgurgan internet va undagi ijtimoiy tarmoqlarga insoniyat qanchalik ma'nau tayyor edi? Bugungi kunda halqning “milliylik g'oyalari himoyasini ta'minlovchi yoshlarning” m'anaviyati yetarlicha mustahkammi? Hozirgi zamonda dunyoda ro'y berayotgan voqea va hodislarga nazar solib ushbu savollarga javob berish kishini chuqur o'yga solmoqda desak adashmagan bo'lamiz. Ho'sh bu savollarga javobni qayerdan izlash lozim? Albatta bu omilga qarshi kurashishda katta tajribaga ega bo'lgan davlatlarning qilgan harakatlari va o'sha davlatlarda ish olib borayotgan olimlarning tadqiqotlaridan boshlash maqsadga muvofiq bo'ladi. Lekin internet va ijtimoiy tarmoqlarning salbiy tomonlarini ko'rib chiqishdan oldin uning afzalliklari va foydali jihatlari qisqacha yoritib o'tsak.

Ijtimoiy tarmoqdan nega foydalanasiz? Deb so'ralganda kimdur yangi do'stlar, biznes uchun sheriklar topish uchun desa, yana kimdur bo'sh vaqtimda yangiliklardan habardor bo'lish uchun, mashxurlikka erishish va blo'gerlik bilan shug'ullanish uchun deb javob beradi. Bularning ba'ridan to'g'ri maqsadda foydalanilsa hech qanday zarari yo'q, hatto foydali jihatlari ham mavjud. Biri investitsiya olib kelishga yordam bersa, boshqasi ilm olishga va yangiliklardan habardor bo'lishga yordam beradi, yana biri esa “hobbi” yani shunchaki ermakdan daromat topishga xizmat qiladi. Ushbu masala bo'yicha “Ajiniyez” nomidagi Nukus Davlat Pedagogika Instituti magistranti Turkenbayeva D.E o'tkazgan “Internetdagi ijtimoiy tarmoqlar yoshlar hayotida qanday o'rin tutadi?” nomli so'rovnomasi natijalari bilan o'zining “Ijtimoiy tarmoqlarning

yoshlar ma'naviyatiga ta'siri" nomli maqolasida ulashgan bo'lib, unga ko'ra 110 dan ortiq kishi ushbu so'rovnoma o'z munosabatini bildirgan, ulardan 26.9% do'stlar ortirish va manfaatli tanishuvlarga yordam beradi degan bo'lishsa, o'z fikrini erkin bildirish imkoniyatini beradi deganlar 20.2% tashkil qiladi, yoshlar tarbiyasi va odob-axloqiga salbiy ta'sir qiladi deganlar esa 26.9% va bekorchilikdan boshqa narsa emas deguvchilar 17.9% tashkil qiladi[1]. Ushbu so'rovnoma natijalaridan ko'rinib turibdiki ijtimoiy tarmoqdan foydalanuvchilar soni yurtimizda ko'paygani sari, uning salbiy oqibatlarini angalayotganlar safi ham kengaymoqda.

Shu bilan birga yuqorida aytib o'tganimizdek muammoning yechimini, bu muammoga ko'p uchragan davlatlarning tajribasidan izlash lozim. Hususan Rossiyaning Shaxta shaxrida joylashgan "Donskiy" davlat universiteti Informatika kafedrasida dotsienti Prikhodko. A.G. o'zining ilmiy maqolalaridan birida quyidagi fikrni bildirgan.

Ko'plab "tobelik" va "insonning biror nimaga mukkasidan ketishligi"ni o'rgangan olimlarning fikriga ko'ra, bizni internetning keng doirasiga tortadigan omil, bu bizning his-tuyg'ularimiz. Har safar yaxshi kayfiyatdagi izohlar, yoqimli sharxlar va o'zimizga yaqin bo'lgan kishilardan olgan SMS habarlarni ko'rganimizda miyyamizning "zavq markazlari" ishga tushadi. Bu ayniqsa yoshlarga qattiq ta'sir ko'rsatadi, aynan ular internetdan to'liq foydalanish imkoniyatiga ega. Ijtimoiy tarmoqlar hozirgi kunda yosh avlodga ta'sir o'tkazuvchi kuchli qurolga aylandi. Bunday kuchlar asosan g'arazli maqsadlarda ishlatilmoqda[2]. Bu fikrga mutloq qo'shilgan holda ozgina qo'shimcha ham kiritmoqchimiz. Inson psixologiyasida ham barcha mavjudodlar singari "ovqat beryaptimi? Yaxshi muomala qilyaptimi? demak ishonsa bo'ladi" degan fikr yotadi va aynan shu yaxshi muomala (maqtovlarni) hozirgi kunda yoshlar aynan internetdagi ijtimoiy tarmoqlardan qidirmoqda. Bu esa o'z navbatida g'araz niyyatli kishilarning e'tibor markazida bo'lib, yoshlarni sohta maqto'vlar yordamida o'z tomoniga og'dirish uchun tish-tirnog'i bilan xarakat qilmoqda. Ota-ona va boshqa jamiyat institutlarining yetarlicha e'tibor bermasligi va yoshlarning asosiy vaqtini ko'chada o'tkazayotgani, ularga juda qo'l kelmoqda, shu o'rinda Prikhodko. A. G.ning aytib o'tgan quyidagi gaplarini eslab o'tishimiz juda o'rinli bo'ladi:

Oila, maktab va madaniyat kabi klassik ijtimoiylashuv institutlari ikkinchi fo'nga o'tdi. Hayoliy, virtual dunyo yoshlar uchun yanada jozibador bo'lib bormoqda. Bu nafaqat his-tuyg'ular, tajribalar haqida gapirish imkonini balki, boshqa insonlarning shaxsiy ma'lumotlariga kirish imkoniyatini beradi. Ular chuqurlashgan sa'ri "vertuallikka qaramlik" havfi borligi haqida o'ylab ham ko'rishmaydi. Haqiqiy muammolardan, virtuallikka qochib, yoshlar o'zlari anglamagan holda uni reallikning bir qismi sifatida qabul qila boshlamoqda[2].

Sotsial tarmoqlarni hayotimizdagi o'rnini o'rgangan yurtdoshimiz Ajiniyez nomidagi Nukus Davlat Pedagogika Instituti magistranti Turkenbayeva. D. E. izlanishlaridan kelib chiqqan holda quyidagi fikrlarni bildirgan:

Ma'lumki, 2011 – yilning boshi butun jahonning diqqat – e'tiboriga sazovor bo'lgan “arab inqiloblari” yoki “arab bahori” nomli voqyealar bilan boshlandi. Tunisda boshlangan davlat to'ntarishi zanjirli reaksiya bo'ylab Misr, Liviya, Suriya, Iordaniya, Yaman va boshqa arab davlatlariga tarqaldi. Bu to'ntarishlarga ahamiyat beradigan bo'lsak, harakatlarni boshlaganlar 18 – 35 yoshlardagi fuqarolar edi. Ya'ni, ular ham sotsial tarmoqlar ta'siri ostida bo'lib qolib, ularning boshqa o'lkalardagi do'stlari qanday yashayotganligini ko'rib o'z hayotlarini tubdan o'zgartirishga ahd qilishdi. Masalan, Misrdagi tartibsizliklar “Twitter inqilobi” degan nomni oldi. Qarangki, sotsial tarmoq qanchalik jamiyat hayotiga va davlat siyosatiga o'z ta'sirini o'tkaza oldi. O'ylashimizcha, bu dalil sotsial tarmoq ta'siriga tushgan yangi fuqarolik jamiyati shakllanishinig boshlanishidir[3]. Ushbu tadqiqot natijalaridan ko'rinib turibdiki, bunday oqimlarga, asosan shaxs sifatida shakillangan ammo, o'zligini to'liq anglab yetmagan yoshlar tushib qolish extimoli ko'proq bo'lib, eng katta e'tiborni shularga qaratishimiz lozim. Bulardan kelib chiqqan holda o'z fikrimizni aytadigan bo'lsak: internet va ijtimoiy tarmoqlarning rivojlanishi jamiyatning to'g'ri shakllanishiga ham foyda ham zarar keltirishi mumkin. Buni huddi bir “oshxona pichog'i”ga qiyoslash mumkin, mohir oshpaz qo'lida mazali va san'at asariga qiyoslash mumkin bo'lgan yeguliklarni tayyorlasa, mohir qotil qo'lida ko'plab insonlar hayotiga zomin bo'luvchi “o'lim quroli”ga aylanadi. Ushbu vositadan hozirgi kunda kim ko'proq va unumliroq faoydalanmoqda? Bu savolga javobni har-kim avvalo o'zidan izlashi lozim, avvalo internet va ijtimoiy tarmoqlardan kun davomida qancha vaqt va qay maqsadda foydalanyotganimizni anglashimiz lozim, buni anglanimizdan so'ng savolga o'z-o'zidan javob ham topiladi. Biz ilm ahlining vazifalaridan biri esa halqni, jamiyatni kirib kelayotgan xavfdan ogohlantirish, buning eng maq'bul vositasi esa atrofda sodir bo'layotgan voqea va hodisalardan misollar keltirgan holda, ularga qarshi immunitet hosil qilishda deb hisoblaymiz.

Hozirgi kunda butun jahon e'tibor markazida bo'lib turgan Rossiya va Ukraina o'rtasidagi urushni olsak. XXI asrda urush natijalarini nafaqat qurol-yaroq zahirasi, balki ijtimoiy tarmoqlar yordamida o'zini oqlash va qo'llab-quvvatlovchilar sonini oshirish ham hal qiladi. Internet va ijtimoiy tarmoqlarda tarqalayotgan har-hil habarlardan o'z manfaatlari yo'lida to'g'ri foydalana olganlar, ushbu o'lim quollaridan biri bo'lmish urushni o'zining manfaatlari yo'lida hohlagan tomoniga burishi mumkin.

Ho'sh ushbu omillarga qarshi turish uchun nimalar qilish lozim? degan savolga N.E.Bauman nomidagi Moskva davlat texnika universiteti o'quvchilari **Alekseev Leonid Evgenevich, Smolina Evgeniya Romanovna, Yarigin Oleg Vitalyevich** lar

o‘zlarining “Научно-издательский центр Аспект” nomli jurnaliga bergan УДК-316 sonli maqolasida quyidagi fikrlarni bergan:

Ommaviy axborot vositalariga tanqidiy munosabatda bo‘lishga yordam beruvchi maslaxatlar beramiz:

- Birinchidan - ma'lumotni ishonchli manba'dan oling;
- Ikkinchidan- ma'lumotning rasmiy manba'laridan foydalaning. Mutaxassislarining dalillaridan, mutaxassis fikridan, ko'rib chiqilayotgan materiallarning tahlilidan foydalaning. Ma'lumotlarning to'g'riligini muntazam tekshirib turing, ayniqsa, agar u shov-shuvli bo'lib tuyulsa yoki sizning noto'g'ri qarashlaringizni tasdiqlash uchun juda qulay bo'lsa, faktlarni tekshiring, turli xil ma'lumot manbalarini taqqoslang va ularning izchilligini tahlil qiling. O'zingizga turli xil ma'lumot manbalarining maqsadlari, qiziqishlari va motivatsiyalari to'g'risida savollar berish orqali tanqidiy fikringizni rivojlantiring. O'zingizdan so'rang, nima uchun bu manba, berilgan **ko'rinish** va **yo'nalishni** tanladi va ularning orqasida yashirin xabarlar yoki manipulyatsiyalar bormi? Axborotni idrok etish va tushunishingizga his-tuyg'ular va tarafkashlikning ta'sirini tushuning. o'zingizning his-tuyg'ularingizni faktlar va dalillardan ajratishga harakat qiling va hissiy ta'sirga tushmasdan muqobil nuqtai nazarlarni ko'rib chiqing. Axborot manbalarini tekshirish ko'nikmalarini rivojlantiring. Turli nashrlar, noshirlar va jurnalistlarning ishonchliligi va obro'sini o'rganing. Ularning ishonchli manbalari bor-yo'qligini, mustaqil jurnalistik tekshiruv o'tkazayotganliklarini va axloq qoidalariga rioya qilishlarini tekshiring. Ma'lumot taqdim etilgan kontekst va holatlarga e'tibor bering. Noto'g'ri ma'lumotlarga ta'sir qilishi mumkin bo'lgan tashqi omillarni, masalan, siyosiy va iqtisodiy manfaatlar, targ'ibot yoki ijtimoiy media algoritmlarining nomuvofiqligini ko'rib chiqing[4].

Yuqorida aydib o'tilgan fikirlar va maslahatlar juda to'g'ri va asosli bo'lsada, afsuski hozirgi globallashuv va axborot almashinuvi juda tezlashgan davrda, foydalanish uchun yetarli darajada aktual emas. Bunday fikr bildirishimizga esa insolarning kam vaqt orlig'ida iloji boricha ko'proq ma'lumot olishga harakat qilayotgani sabab bo'ldi. Uchbu holatlarni esa internetda tarqalayotgan video lavxalar va jurnalistik maqolalarning xajmini qisqarishida ko'rishimiz mumkin. Demakki 15-20 daqiqalik video, yoki 5-10 varoq maqolani o'qishga sabri yetmayotgan insonlar, berilgan ma'lumotni manba'sini qidirishga sabri yetadimi? Albatta bunday ishlar bilan ko'pchilik shug'ullanmaydi.

Shunday ekan halqni ongi va ma'naviyati butunligini saqlash yolida O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A. Karimovning “Jaholatga qarshi- Ma'rifat” degan so'zlaridan kelib chiqqan holda ish tutilsa, katta yutuqlarga erishish mumkin, misol sifatida, yana o'sha Rossiya va Ukraina mojarosiga nazar qaratsak:

Rossiyaning, Ukraina bilan urushda 31.03.2024 gacha ko'rgan talofatlari Ukraina Mudofaa Vazirligi bergan ma'lumotga ko'ra: tanklar- 6966(+15), artileriya tizimlari- 11050(+44), jangovar zirxli texnika- 13304 (+20), XXM tizimlari- 743(+7), samalyot- 347, vertolyot- 325, uchuvchisiz apparatlar- 8731(+30), qanotli raketalar- 2048(+2), kemalar(katerlar)- 26, suv osti kemalari- 1, avtomobillar va avtotisternalar- 14717(+47), maxsus texnikalar- 1823(+9), shaxsiy tarkib- 442170 atrofida (+650)[5]. Ushbu ko'rsatilgan statistik ma'lumotlar Ukraina Mudofaa Vazirligi tomonida taqdim etilgan bo'lsada, ularning ishonchliligiga, Rossiya xalqining ko'ngliga g'ul-g'ula solish uchun bo'rtirib ko'rsatilmaganiga kim kafolat bera oladi? Har holda ushbu ko'rsatilgan sonlar kichkina emas.

Bunga oxshash holat Rossiya axborot vositalaridaham kuzatiladi, misol uchun emigrating.ru sayti habar berishicha og'ir yaralangan, asirga olinganlar va halok bo'lganlar umumiy hisobda 30.03.2024 holidiga ko'ra 300 000 kishi atrofida deb hisoblanmoqda[6]. Albatta bu sonlarni qanchalik haqiqatga yaqin ekanligini tekshirish imkoniyati yoq, shuning uchun rasmiy manbalarda keltirilgan ma'lumotlarga ishonishda o'zga choramiz yo'q.

Bunga oxshash xolatni Falastin va Isroil o'rtasidagi urush natijasida hujum qilingan kasalhona, ustida kechgan "ma'lumotlar o'yini"da ham kuzatishimiz mumkin. Falastin hukumati "u yerda begunoh aholidan boshqa hech narsa yo'q edi" desa, Isroil hukumati "kasalhona ostida Falastin kuch tuzulmalari joylashgan **Bunker** bor" deyishadi.

Yuqorida keltirilgan faktlar, izohlar va tavsiyalardan kelib chiqib hulosa o'rnida shuni aytib o'tmoqchimiz:

- **Birinchidan-** maktab yoshidagi bolalar orasida"mahalla, maktab, oila" tamoili asosida nazoratni amalga oshirish. Bunda bola maktabga kelgan vaqtda maktab ma'muriyati tomonidan bolaning telefondan foydalanishini nazorat qilish. Maktabdan tashqari ko'cha-ko'yda va oila davrasida , ota-ona hamda mahalla tomonidan nazorat qilinishini yo'lga qo'yish.
- **Ikkinchidan-** balog'at yoshidagilarga nisbatan jamoatchilik institutlarining mas'ulati oshirish, ijtimoiy tarmoqlar va televidinyalarda yoritiladigan va ommaviy munozaralarga sabab bo'layotgan be'hayo, millatimiz va manaviyatimizga zid harakatlar aks etgan video va foto lavhalar o'rniga, yoshlarga o'rnak bo'ladigan, o'qib ilm olishga targ'ibot qiluvchi mavzularni ko'proq yoritish va halq e'tiboriga namoish qilish. Kun tartibini mazmunli va sermahsul o'tkazishi uchun ziyolilar, psixologlar, diniy idora vakillari tomonidan maxsus yo'riqnoma sifatida qisqa metrajli video murojatlar, yo'riqnoma berib borilishini yo'lga qo'yish.
- **Uchinchidan-** diniy yo'sindagi buzg'unchi g'oyalarga qarshi imunitet hosil qilish, globallashuv jarayonlarida mamlakatimiz hududiga, milliy an'analarimiz va qadriyat urf-odatlarimizga to'g'ri kelmaydigan madaniyatni kirib kelishini oldini olish "Jaholatga qarshi- ma'rifat bilan" kurashmog'imiz lozim bo'ladi.

- **Tortinchida-** ijtimoiy tarmoqlar orqali davlatni halqaro maydondagi pozitsiyasiga qarshi qaratilgan fuqarolarning ongini zaharlash hamda mamlakatimiz hududida nizo keltirib chiqarishga yo'naltirilgan video, audio hamda yozma materiallardan himoyalanih dasturini ishlab chiqish.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. *Turkbenbayeva D.E. 2-kurs magistrant Ajiniyez nomidagi Nukus Davlat Pedagogika Instituti. IJTIMOIIY TARMOQLARNING YOSHLAR MA'NAVIYATIGA TA'SIRI "Экономика и социум" №10(101)-2 2022 www.iupr.ru 190.bet*
2. *Приходько А.Г. студент Бурякова О.С., к.ф.н. доцент кафедра «Информатика» Институт сферы обслуживания и предпринимательства (филиал) Донской государственной технической университет Россия, г. Шахты РОЛЬ СОЦИАЛЬНЫХ СЕТЕЙ В ЖИЗНИ ОБЩЕСТВА "Теория и практика современной науки" №3(9) 2016 стр 872*
3. *Turkbenbayeva D.E. 2-kurs magistrant Ajiniyez nomidagi Nukus Davlat Pedagogika Instituti. IJTIMOIIY TARMOQLARNING YOSHLAR MA'NAVIYATIGA TA'SIRI "Экономика и социум" №10(101)-2 2022 www.iupr.ru 192.bet*
4. *Ijtimoiy tarmoqlarda ommaviy ongga salbiy ta'sirga qarshi kurashish usullari УДК-316 na-journal.ru <https://na-journal.ru/11-2023-informacionnye-tehnologii/7208-puti->*
5. <https://www.mil.gov.ua/>
6. <https://emigrating.ru/30-03-2024-realnye-poteri-vsu-i-rf-na-ukraine-na-segodnya/#i>